



**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI**

2023-yil 28-avgust

99-sonli

BUYRUG'1



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA'LIM AGENTLIGINING
BUYRUG'I

2023-yil 28 - avgust

99 -son

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining
ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuritilayotgan ish hujjatlarini tartibga solish, xodimlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi va oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining ish hujjatlarini yuritilishi bo'yicha qo'llanma 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, tasdiqlanayotgan pedagoglarining ish hujjatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2023-2024 o'quv yilidan boshlab yuritiladi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

o'n kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur ro'yxat va qo'llanmani barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetkazish;


barcha tashkilotlarda pedagoglarning ish hujjatlari mazkur ro'yxat va qo'llanma asosida qayta ko'rib chiqilishini ta'minlash choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

4. Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi (A.Odilov) ushbu buyruqni Maktabgacha ta'lim agentligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga, Toshkent shahar hamda viloyatlar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutiga va Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markaziga yetkazilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan, O'zbekistan Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining 2019-yil 30-avgustdagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to'g'risida"gi 155-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish direktor o'rinbosari O.Raxmatillayev zimmasiga yuklatilsin.

**Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining birinchi o'rinbosari -
Maktabgacha ta'lim agentlik direktori**



A.Shin

**Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish hujjatlari
RO'YXATI**

Y/j indeksi	Yig'ma jild nomi	Saqlanish muddati (modda raqamlari)	Izoh
01 — Boshqaruv hujjatlari			
01-01	Kiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar: 1. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi tomonidan yuborilgan buyruq, xat va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar. 2. Turli tashkilot va idoralardan kelgan hujjatlar	Zarurat qolmaguncha 1b, 2b, 9b- moddalar	
01-02	Chiquvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar: 1. Faoliyatiga doir buyruqlar 2. Chiqarilgan xatlar	Doimiy 5 a – modda 3 yil 898–modda	
01-03	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari (yozma, og'zaki va elektron)	3 yil ¹ 65 b–modda	
01-04	Faoliyatga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar: 1. Ustav 2. Kadastr hujjati. Moddiy-texnik bazasi aks ettirilgan tashkilot pasporti 3. Attestatsiya-akkreditatsiya natijalari doir hujjatlar (ma'lumotnoma, dalolatnomalar, sertifikatlari)	Doimiy 31 ^a -modda Doimiy 5 yil ² 355-modda 5 yil ETK 59-modda	
01-05	Moliyaviy hujjatlari: 1. Yillik sarf-xarajatlar smetasiga berilgan takliflar hamda tasdiqlangan smeta nusxasi (yillik, choraklik) 2. Shtatlar jadvali, xodimlarning tarifkatsiyasi va ularning ish vaqti hisobini yuritish tabeli	Doimiy 3 yil ² 222-modda	
01-06	Yillik ish reja va uning bajarilishiga oid hujjatlar	Doimiy 170-modda	
01-07	Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi hujjatlari	Doimiy 3 yil ² 222-modda	
01-08	1. Taftish komissiyalari, auditorlar, davlat moliyaviy nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv xulosalari, dalolatnomalar. 2. Tashrif buyuruvchilarni qayd etish monitoring kitobi. 3. Tashkilot direktori almashganda tuzilgan topshirish – qabul qilish dalolatnomalari va ularga oid ilova hujjatlar	5 yil ETK ¹ 80-modda 3 yil 124 ^g -modda Doimiy 54-modda	Navbatdagi tekshiruv o'tkazilgandan so'ng

01-09	Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Pedagogik kengashi hujjatlari	Doimiy 3 yil ² 222-modda	
02 – Tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar			
02-01	Tarbiyalanuvchilarni qabul qilish, guruhdan guruhga o'tkazish va ro'yxatidan chiqarish to'g'risidagi buyruqlar yig'ma jildi.	5 yil ¹ 25-modda	
02-02	Ota-onalar bilan tuzilgan shartnomalar, bolalarga Davlat xizmatlari markazidan berilgan yo'llanmalar (<i>ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosalari</i>) yig'ma jildi va qayd etish kitobi	5 yil ¹ 1087-modda	shartnoma muddati tugaganidan so'ng
03 – Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori			
03-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
03-02	Uch yillik istiqbol va unga muvofiqlashtirilgan oylik rejasi (Ish jurnali)	3 yil 124-modda	
03-03	Xodimlar bilan yo'riqnoma o'tkazish kitobi (“Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizom, “Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari”, “Texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish” yo'riqnomalari hamda “Yong'in xavfsizligi qoidalari”).	3 yil 124-modda	
04 – Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti			
04-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
04-02	Yillik ish rejasiga muvofiqlashtirilgan oylik ish rejasi (Ish jurnali). Yillik hisobot.	3 yil 124-modda	
04-03	Bolaning rivojlanish xaritasining yuritilishini nazorat qilish daftari.	3 yil 124-modda	
05 – Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (bolalarni boshlangich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhi) tarbiyachisi			
05-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
05-02	Oylik ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil 124-modda	
05-03	Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar)	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
05-04	Bolalarning rivojlanish xaritalari. Yillik hisobot.	3 yil ¹	Tarbiyalanuvchi tashkilotdan ketgandan so'ng
06 – Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi			
06-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	

06-02	Oylik ish rejasi (Ish jurnali). Yillik hisobot.	3 yil 124-modda	
06-03	Psixologik xulosalar va bolaning psixologik rivojlanish xaritasi*	3 yil ¹	*XDFU* Tarbiyalanuvchi tashkilotdan ketgandan so'ng
06-04	Korreksion ish jurnali	3 yil 124-modda	
07 – Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari			
07-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
07-02	Oylik ish rejasi (Ish jurnali). Yillik hisobot.	3 yil 124-modda	
07-03	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	3 yil 171-modda	
07-04	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini o'tkazish rejasi va ertaliklar ssenariylari	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
07-05	Korreksion ritmik mashg'ulotlari rejasi (<i>ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun jismoniy yoki psixik nuqson turiga qarab</i>)	1 yil 697-modda	
08 – Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisi			
08-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
08-02	Oylik ish rejasi (Ish jurnali).	3 yil 124-modda	
08-03	Sport musobaqalarini o'tkazish ish rejasi va sport bayramlar ssenariylar yig'ma jildi	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
08-04	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
9 – Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (Umumiy tur) defektologi			
9-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
9-02	Defektologning ish rejasi (Ish jurnali). Yillik hisobot.	3 yil 124-modda	
9-03	Defektologning bolalami ro'yxatga olish va ro'yxatdan chiqarish, mashg'ulotga qatnovini qayd etish kitobi	3 yil 124-modda	
9-04	Bolaning nutq xaritasi	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
9-05	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
10 – Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti til o'qituvchisi			
10-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
10-02	Til o'qituvchisining mashg'ulot jadvali va ish rejasi.	3 yil zarurat qolmagunga kadar 211 — modda	

11 – Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti va qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi			
11-01	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. 2-7 yoshli alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o‘quv dasturi va metodik qo‘llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so‘ng 27 ^b -modda	
11-02	Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr va ota-onalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar)	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
11-03	Pedagoglarning o‘zaro hamkorlik daftari	3 yil 171-modda	
11-04	Bolaning rivojlanish xaritasi. Yillik hisobot.	5 yil ETK 487-modda	
11-05	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash daftari	3 yil 697-modda	
12-Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti va qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi			
12-01	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. 2-7 yoshli alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o‘quv dasturi va metodik qo‘llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so‘ng 27 ^b -modda	
12-02	Yillik va istiqbol ish rejasi. Yillik hisobot.	5 yil 210-modda	
12-03	Tarbiyachi bilan hamkorlik ish rejasi	3 yil 171-modda	
12-04	Bolaning individual ta’lim yo‘nalishi	3 yil 697-modda	
12-05	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	zarurat qolmaguncha 172-modda	
12-06	Bolaning yakka tartibdagi uy vazifasi daftari	1 yil zarurat qolmaguncha	

**Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti
va oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish hujjatlari
RO'YXATI***

Y/j indeksi	Yig'ma jild nomi	Saqlanish muddati (modda raqamlari)	Izoh
01 – Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda–DXSH asosidagi MTT) va oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda — oilaviy MTT) boshqaruv hujjatlari			
01-01	Kiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar: 1. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan yuborilgan buyruq, xat va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar 2. Turli tashkilot va idoralardan kelgan hujjatlar	Zarurat qolmaguncha 1b, 2b, 9b-moddalar	
01-02	Chiquvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar: 1. Faoliyatga doir buyruq 2. Chiqarilgan xatlar	Doimiy 5 a – modda 3 yil 898 — modda	
01-03	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari (yozma, og'zaki va elektron)	3 yil ¹ 65 b — modda	
01-04	Faoliyatga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar: 1. Maktabgacha ta'lim agentligi bilan tuzilgan bitim nusxasi 2. Faoliyatini yuritishga ruxsat beruvchi litsenziya 3. Ustavi 4. Kadastr hujjati. Moddiy-texnik bazasining holatini aks ettiruvchi tashkilot pasporti 5. Yagona mavsumiy taomnoma	Zaruriyat tugashiga qadar Doimiy 31 ^a -modda Doimiy 5 yil ² 355-modda	
01-05	Moliyaviy hujjatlar: Yillik sarf-xarajatlar smetasiga berilgan takliflar hamda tasdiqlangan smeta nusxasi (yillik, choraklik)	Doimiy 3 yil ² 222-modda	
01-06	Yillik ish reja va uning bajarilishiga oid hujjatlar	Doimiy 170-modda	
01-07	Davlat moliyaviy nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv xulosalari, dalolatnomalar; Tashrif buyuruvchilarni qayd etish monitoring kitobi	5 yil ETK ¹ 80-modda 3 yil 124 ^g -modda	Tekshiruv o'tkazilganda n so'ng
02– DXSH asosidagi MTT va oilaviy MTT tarbiyalanuvchilariga oid hujjatlar			
02-01	Tarbiyalanuvchilarni qabul qilish, guruhdan guruhga o'tkazish va ro'yxatidan chiqarish	5 yil ¹ 25-modda	

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com vab-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

91328-88-38 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

2023-yil 28-avgust 99-sonli buyruqni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

@Maktabgacha_TT

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.